



MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLAR BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA SOLIQLARNI BYUDJETLARARO TAQSIMLASHNING AHAMIYATI

Sharapova Mashxura Azadovna

TMI "Moliya" kafedrası dotsenti, PhD

Tel. 97 709 00 25 e-mail: sharapovamash@mail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7785437>

ARTICLE INFO

Received: 22th March 2023

Accepted: 29th March 2023

Online: 30th March 2023

KEY WORDS

Mahalliy byudjetlar, mahalliy byudjetlar barqarorligi, mahalliy byudjet daromadlari, soliq vakolatlari, byudjetlararo munosabatlar, solikli daromadlar, biriktirilgan daromadlar, tartibga soluvchi daromadlar, byudjet darajalari, byudjetlararo taqsimlash.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlashning zarurligi, mahalliy byudjetlarning biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlariga e'tibor qaratilgan va mahalliy byudjetlarni daromadlari bazasini mustahkamlash maqsadda soliqlarni respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlash mexanizmi yoritilgan.

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash maqsadida davlat moliyasi tizimini mazmun va sifat jihatdan zamon talablari asosida takomillashtirish zarurati kelib chiqmoqda. Buni "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" da **mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi** [1]. Bunda Davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy darajada ("mahallabay" tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo'lga qo'yish, hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag'al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag'allikning qayta tiklanish vazifasi belgilab qo'yildi. Bu esa o'z navbatida mahalliy byudjetlarning mustaqilligini yanada oshirish va daromad bazasini mustahkamlash, qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash,



shuningdek, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha manbalarni jalb etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rishni taqozo etadi.

Mahalliy byudjetlar mahalliy hokimliklarni o'z vazifalarini amalga oshirishda moliyaviy dastak hisoblanib, ularning moliyaviy mustaqilligi ushbu hududlarni rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimiz rahbari 2022 yilning yakuni bo'yicha Oliy Majlisga Murojaatnomasida hududlarni muammolarini bartraf etishda moliyaviy mustaqillikni yanada oshirishga alohida e'tibor qaratdilar: "Mahalla o'zining muammosini mustaqil hal etishi uchun "Mahalla byudjeti" tizimi joriy etiladi. Buning uchun yangi yilda 1 yanvardan boshlab mol-mulk va yer soliqlarining bir qismi mahallaning o'zida qoladi[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlatning qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o'z vaqtida va to'liq bajarish ma'lum moliyaviy asosni talab etadi, ushbu asosning markaziy bo'g'inini davlat byudjeti tashkil etadi. Davlat byudjeti daromadlari davlatning markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib, ular davlat funksiyalarini bajarish uchun xizmat qiladi. Davlat byudjeti daromadlari pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi[3].

Mamlakatda byudjet daromadlarini rejalashtirish uchun zarur ma'lumotlar bazasini yetarli va sifatli darajada shakllantirish hamda bu boradagi huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni tartibi, usuli, muddati hamda ishtirokchilar vazifalarini aniq ko'rsatib beruvchi huquqiy hujjat qabul qilish lozimligi Q.A. Usmonov tomonidan qayd etilgan[4].

Davlat byudjeti daromadlari barqarorligi, turli darajadagi byudjet daromadlari mutanosibligini ta'minlash haqida gap borar ekan, iqtisodchi olim A.X. Islamqulov markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlarining moliya-byudjet, byudjet-soliq sohalarida vakolatlarini aniq belgilab olish lozimligini, byudjet darajalari o'rtasida xarajat majburiyatlaridan kelib chiqib daromadlarni optimal taqsimlash mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash xizmat qilishini ta'kidlaydi[5].

Soliqlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash tizimini mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini maksimalashtirishdan manfaatdorligini ta'minlashga xizmat qilishini inobatga olib ushbu jarayonni, shuningdek, hududiy soliq salohiyatni baholash va mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish zarurligi Professor Sh.A. Toshmatov tomonidan ilgari surilgan[6].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mahalliy byudjetlari daromadlari o'z daromadlari (mahalliy soliqlar va yig'imlar) va tartibga soluvchi daromadlar (mahalliy byudjetlarga qoldiriladigan umumdavlat soliqlari, mahalliy byudjetlar uchun muvozanatlashtiruvchi moliyaviy transfertlar)dan tashkil topadi.

Oxirgi besh yil ichida mamlakatimizda mahalliy byudjetlarning mustaqilligini ta'minlash, daromadlar bazasini mustahkamlash va moliyaviy nomarkazlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayrim xarajatlar boyicha vakolatlarning o'zgarishi, ya'ni avvalari mahalliy byudjet xarajatlari tarkibida bo'lgan ta'im muassasalarining 1 va 2 guruh xarajatlarining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi davlat byudjeti tarkibida mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlari ulushining o'zgarishi olib keldi(1-jadval).



Tahlil qilinayotgan davrda mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi 2019 yilda 31,3 foizni va 2022 yilda 21,6 foizni tashkil qilmoqda. Bu holat bir tomondan, mahalliy byudjet daromadlarining xarajatlariga mutanosib emasligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, mamlakatda ijtimoiy soha taraqqiyotiga ustuvor ahamiyat berilayotganligidan darak beradi. O'z navbatida, byudjet qonunchiligiga ko'ra, mahalliy byudjetlar taqchillik bilan moliya yilini yakunlashiga yo'l qo'yilmaydi. Shu munosabat bilan moliyaviy transfertlar orqali mahalliy byudjetlarning taqchilligi qoplanib kelinmoqda.

1-jadval

Davlat byudjeti daromadlarini byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi[7], mlrd. so'm

Daromadlar	2020 yil				2021 yil				2022 yil			
	Res. byudjeti	%	Mahalliy byudjet	%	Res. byudjeti	%	Mahalliy byudjet	%	Res. byudjeti	%	Mahalliy byudjet	%
I. Daromadlar jami:	98186,1	73,9	34751,9	26,1	120232	81,7	26970,3	18,3	162588	81,3	37412,2	18,7
1. Bevosita soliqlar	25187,2	55,7	20019,8	44,3	32515,5	69,4	14329,7	30,6	49522,5	72,3	18988,5	27,7
1.1 Foyda solig'i	19839	69,1	8873	30,9	26064,8	93,9	1714,6	6,17	40629,1	92,9	3108,6	7,11
1.2 Aylanmadan soliq	0	0	1353,9	100	0	0	2160	100	0	0	2728,3	100
1.3 Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	5348,2	35,3	9792,8	64,7	6450,8	38,2	10455	61,8	8893,4	40,3	13151,6	59,7
2. Bilvosita soliqlar	40350,2	86,9	6077,8	13,1	60145,9	96,2	2380,8	3,81	69815,1	95,42	3349,8	4,58
2.1 Qo'shilgan qiymat solig'i	31177	100	0	0	46955,4	100	0	0	53300	100	0	0
2.2 Aksiz solig'i	6461,2	55,2	5235,8	44,8	9439,3	79,9	2380,8	20,1	11688,6	77,7	3349,7	22,3
2.3 Bojxona boji	3 553,7	100	0	0	3751,2	100	0	0	4826,6	100	0	0
3. Resurs to'lovlari va mulk solig'i	15340,2	72,2	5916,8	27,8	12919,9	66,5	6506,9	33,5	16709,8	65,0	8980,6	35
3.1 Mulk solig'i	0	0	1974,3	100	0	0	2510,3	100	0	0	3217,7	100
3.2 Yer solig'i	0	0	2386,7	100	0	0	2941	100	0	0	4119,8	100
3.3 Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	15340,2	93,4	1076,8	6,6	12919,9	95,1	668,3	4,92	16709,8	96,3	643,1	3,71
3.4 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0	0	478,8	100	0	0	387,3	100	0	0	1000	100
4. Boshqa daromadlar (va soliq bo'lmagan tushumlar)	5439,1	27,1	14606,9	72,9	14650,4	79,6	3753,2	20,4	4448	13,63	28185,7	86,4
Divident	0	0	0	0	0	0	0	0	22092,4	0	-22092	0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aylanma soliq 100% mahalliy byudjetga tushadi. Qolgan bevosita soliqlarning respublika byudjetidagi ulushi ortib bormoqda. Bilvosita soliqlardan QQS va bojxona boji 100% respublika byudjetiga tushib, aksiz solig'ining mahalliy byudjet daromadlaridagi ulushi kamayib bormoqda. Resurs to'lovlari va mulk solig'ining salmoqli qismi mahalliy byudjetlar ixtiyorida bo'lib, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan boshqa soliqlar 100% mahalliy byudjetga tushadi.

Soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi byudjetlarning daromad va xarajatlarni amalga oshirish vakolatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Mahalliy hokimliklarning mustaqilligini oshirish, xarajat vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, respublika byudjetidan beriladigan moliyaviy yordamlarni kamaytirilishi natijasida soliqlarning bir necha turlari tumanlar va shaharlar byudjetlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyat byudjetlari va Toshkent shahar byudjetlari o'rtasida taqsimlanishi belgilab qo'yildi (2-jadval).

2-jadval



Soliqlarni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlanishi [7]

Byudjet darajalari	Soliq turlari
Tuman va shahar byudjetiga birlashtirilgan	<ul style="list-style-type: none">• Tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq,• Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq• Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i• Bozorlardan daromadidan tushumlar• Mahalliy yig'imga (alkogol mahsulotlari savdosi yig'imi)
Tuman va shahar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi	<ul style="list-style-type: none">• Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi• Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi• Yuridik shaxslarning yer solig'i• Yuridik shaxslarning mulk solig'i• Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq• Yagona yer solig'i
Viloyat byudjetiga birlashtirilgan	<ul style="list-style-type: none">• Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq• Abonent to'lovi• Davlat bojlari• Jarimalar• Yo'l harakati xavfsizligi idoralari (DAN) yig'imga
Respublika va viloyat byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi	<ul style="list-style-type: none">• Yer qo'riqidan foydalanganlik uchun soliq• Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i• Qo'shilgan qiymat solig'i• Aksiz solig'i

2020 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining asosiy parametrlari O'zbekiston Respublikasi Qonuni shaklida qabul qilinib, Oliy Majlis tomonidan Respublika byudjeti daromadlari tasdiqlash tartibi joriy etildi. Mahalliy hokimiyat vakillik organlari vakolatlarini kengaytirish maqsadida mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari hajmlarini, byudjetdan ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorini, mahalliy byudjetlardan byudjet mablag'larini taqsimlovchilariga ajratiladigan byudjet mablag'larning miqdorini tasdiqlash Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan tasdiqlanmoqda.

2020 yil 24 avgustda Davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va budjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-budjet tizimining shaffofligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish, Davlat budjetini o'rta muddatli davr uchun rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vairlar Mahkamasining "2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasi" tasdiqlandi[8]. Ushbu hujjatda davlat byudjeti darajalari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Davlat moliyasini boshqarishning yanada oqilona va samarali tizimini ta'minlash maqsadida byudjet tizimining



byudjetlari o'rtasida ulardan har birining xarajatlar bo'yicha majburiyatlarini aniq ajratishni va daromad olish manbalarini mustahkamlashni nazarda tutuvchi byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish zarur bo'lib, byudjetlararo transfertlar miqdorini hisoblash va ajratishning yagona va shaffof uslubiyati joriy etilishi belgilandi.

XULOSA

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida mahalliy byudjetlarning ahamiyati ortib borayotganligi ularni mustaqilligini oshirishni taqazo etadi. Byudjetlararo mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy hokimliklarni ma'suliyatini oshirish bilan bog'liq siyosat yuritilishiga qaramasdan, mahalliy byudjetlar ixtiyorida daromadlar ulushi pastligicha qolmoqda. Byudjetlararo munosabatlarni rivojlanishi, daromadlarni byudjetlararo oqilona taqsimlanishi nafaqat byudjet tizimining holatini, balki aholi turmush darajasi va mahalliy hokimliklarni iqtisodiy-ijtimoiy sohani rivojlantirish ko'rsatkichlarida ham namoyon bo'ladi.

Soliq stavkalarini pasayishiga qaramasdan, mahalliy budjetlar daromadlari summasi ortib borayotgan, uning tarkibida mahalliy soliqlar va yig'implarning ulushi o'tgan yillarga nisbatan ko'paygan bo'lsada, ammo mahalliy byudjetlar xarajatlarini qoplash uchun yetarli emas. Shunday ekan, soliqlarni byudjetlar o'rtasida taqsimlashda mahalliy byudjetlar xarajatlarini hisobga olish zarur.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://review.uz/oz>
3. N Ismoilova, M Sharapova. [Effective use of financial control in the public finance management \(PFM\)](#) - International journal on economics, finance and sustainable development. ISSN (electronic): 2620-6269/ ISSN (printed): 2615-4021 .
4. Usmonov Q.A. Byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2014 yil
5. Islamkulov A.K. Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil.
6. Toshmatov Sh.A. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat byudjeti daromadlari manbalarini kengaytirish yo'nalishlari // O'zbekistonda moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 2017 yil 10 noyabr. -T.: TDIU, 2017. -b.27-28.
7. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 506-son qarori.